

OILAVIY HUQUQIY MUNOSABATLAR MOHIYATI VA UNDA ISHTIROK ETUVCHI SUBEKTLAR

Mallayev Normamat Ramazonovich

Yuridik fanlar nomzodi dotsent

Ibodova Muborak Akmalovna

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti

advokatik faoliyati yo'nalishi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada oilaviy huquqiy munosabatlarning nazariy asoslari, ularning huquqiy tabiati va ishtirok etuvchi subyektlarining huquqiy maqomi tahlil qilinadi. Oilaviy huquqiy munosabatlar jamiyatda muhim o‘rin tutadi va fuqarolarning shaxsiy hamda mulkiy munosabatlarini tartibga soladi. Maqolada ushbu munosabatlarning shakllanishi, rivojlanishi va ularni tartibga soluvchi huquqiy normalar, shuningdek, ishtirokchilar doirasining huquqiy tavsifi keltiriladi.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются теоретические основы семейных правоотношений, их правовая природа и правовой статус субъектов. Семейные правоотношения играют важную роль в обществе, регулируя личные и имущественные отношения граждан. Также анализируются нормы, регулирующие данные отношения, и даётся правовая характеристика участников.

Abstract:

This article analyzes the theoretical foundations of family legal relations, their legal nature, and the legal status of the subjects involved. Family legal relations play an important role in regulating personal and property relations in society. The article also discusses the legal norms governing these relations and provides a legal description of the subjects.

Kalit so‘zlar: oilaviy huquq, subyektlar, huquqiy munosabatlar, nikoh, ota-onalik, vasiylik, homiylik, aliment, ajrim, farzandlik huquqlari, davlat organlari, FHDYO, advokat, mediatsiya, qonunchilik, huquqiy maqom, huquqiy madaniyat.

oilaviy huquq, subyektlar, huquqiy munosabatlar, nikoh, ota-onalik, vasiylik.

Ключевые слова: семейное право, субъекты, правоотношения, брак, родительство, опека, попечительство, алименты, развод, права ребёнка,

государственные органы, ЗАГС, адвокат, медиация, законодательство, правовой статус, правовая культура.

семейное право, субъекты, правоотношения, брак, родительство, опека.

Keywords: family law, subjects, legal relations, marriage, parenting, guardianship, custody, alimony, divorce, children’s rights, government bodies, civil registry, lawyer, mediation, legislation, legal status, legal culture.

family law, subjects, legal relations, marriage, parenting, guardianship.

Kirish.

Oilaviy huquqiy munosabatlar inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimidir. Ushbu munosabatlar odatda shaxsiy yaqinlik, oila qurish, farzand tarbiyasi, mulkiy munosabatlar va boshqa jihatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Oilaviy munosabatlar har bir jamiyatda o‘ziga xos qadriyatlar va an’analar asosida shakllanadi. Shu sababli ularni huquqiy jihatdan tartibga solish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism

Oilaviy huquqiy munosabatlarning asosiy belgilaridan biri bu ularning ijtimoiy va huquqiy mohiyatining uyg‘unligidir. Ular nikoh tuzish, farzandlikka olish, ota-onalik huquqlari, aliment majburiyatlari, mulkiy taqsimot va vasiylik kabi masalalarda namoyon bo‘ladi. Bunday munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlar – er va xotin, ota-onalar, farzandlar, vasiylar, homiylar – o‘zlarining huquqiy maqomiga ega bo‘ladi.

Oilaviy huquqiy munosabatlar subyektlari orasidagi aloqalar ko‘pincha shaxsiy ishonch, mehr, mas’uliyat va o‘zaro hurmat asosida rivojlanadi. Ammo ushbu munosabatlar huquqiy tartibga solinishini talab etuvchi holatlar – nikoh shartnomalari, ajrashish, aliment undirish, ota-onalik huquqlarini tiklash yoki cheklash hollari qonun doirasida hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Amaldagi Oilaviy kodeksi ushbu subyektlarning huquqiy maqomini belgilab bergan. Misol uchun, kodeksda nikoh faqat rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng yuridik kuchga ega bo‘lishi belgilangan bo‘lib, bu er va xotinning huquq va majburiyatlarini yuzaga keltiradi. Farzandlar esa tug‘ilgan paytdan boshlab shaxs sifatida e’tirof etilib, ota-onalarning ularga nisbatan majburiyatlari qonunchilik asosida belgilanadi.

Oilaviy huquqiy munosabatlarning shakllanishi asosan qonuniy nikoh asosida vujudga keladi. Nikohning qonuniy kuchga ega bo‘lishi uchun u fuqarolik holati

dalolatnomalarini yozish organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim. Ushbu ro‘yxatga olish nafaqat nikoh tomonlarining huquq va majburiyatlarini belgilaydi, balki ularning huquqiy munosabatlar subyektlari sifatida tan olinishini ta‘minlaydi.

Bundan tashqari, oilaviy munosabatlarda muhim ishtirokchilardan biri bu – farzandlardir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va Oilaviy kodeksida farzandlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga alohida e‘tibor qaratilgan. Farzandlar voyaga yetmagan davrda ular ustidan ota-onalar yoki qonuniy vakillar tomonidan vasiylik va homiylik amalga oshiriladi. Bu esa, vasiy va homiylarning ham oilaviy huquqiy munosabatlar subyekti sifatida e‘tirof etilishiga asos bo‘ladi. Shuningdek, vasiylik va homiylik instituti bolalarning ijtimoiy himoyasini ta‘minlashda, ularning ta‘lim-tarbiya olishi va hayotiy sharoitlarini yaxshilashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Vasiylar va homiylar qonun doirasida farzandlarga nisbatan ota-onalarning huquq va majburiyatlariga tenglashtirilgan holda harakat qiladilar.

Shuni ham ta‘kidlash kerakki, oilaviy huquqiy munosabatlarda davlat organlari, xususan, FHDYO, vasiylik va homiylik organlari, sudlar va boshqa ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tashkilotlari bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi. Ularning vazifasi ushbu munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash, nizolarni hal qilishda yordam ko‘rsatish va subyektlar huquqlarining ta‘minlanishini kafolatlashdan iborat bo‘lib, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan amalga oshirilgan qonunchilik islohotlari oilaviy huquq sohasiga ham ta‘sir ko‘rsatmoqda. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ishlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi qarorlarida oilaviy nizolarni hal qilish, farzandlar tarbiyasi, ajrimlarning oldini olish borasidagi mexanizmlar takomillashtirilgan.

Bundan tashqari, oilaviy huquqiy munosabatlar subyektlari orasida notanish, biroq muhim rol o‘ynovchi shaxslar ham mavjud. Jumladan, vasiylik va homiylik organlari xodimlari, pedagoglar, psixologlar va mediatsiya mutaxassisleri oilaviy nizolarni yumshatishda, bolalarning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bularning barchasi oilaviy munosabatlar doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita subyektlar hisoblanadi.

Oilaviy huquqiy munosabatlarda advokatning ishtiroki ham alohida e‘tiborga loyiq. Ko‘plab hollarda, ayniqsa ajrim, aliment, farzand ustidan vasiylik

masalalarida fuqarolar o‘z huquqlarini to‘liq anglab yetmasliklari mumkin. Advokat esa nafaqat ularning huquqiy manfaatlarini himoya qiladi, balki nizolarni hal qilishda teng va adolatli yondashuvni ta‘minlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, oilaviy huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning doirasi keng va har birining o‘ziga xos huquqiy maqomi mavjud. Ularning huquqlari va majburiyatlarini belgilashda amaldagi milliy qonunchilikka, xalqaro huquqiy me‘yorlarga, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga asoslanish lozim.

Ilmiy adabiyotlarda ham ushbu masalaga turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, huquqshunos olim G.Zaynutdinovning ta‘kidlashicha: “Oilaviy huquqiy munosabatlarda shaxsiylik elementi ustuvor bo‘lsa-da, bu munosabatlar yuridik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi normalarga asoslanadi”. Bu fikr shuni anglatadiki, oilaning ichki muammolari huquqiy javobgarlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning subyektlari o‘z harakatlari uchun javobgar bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy huquqiy munosabatlar shunchaki oiladagi shaxsiy aloqalar emas, balki jiddiy ijtimoiy va yuridik tizimdir. Ushbu tizimda subyektlarning aniq belgilanishi, ularning huquqiy maqomi va javobgarligi, nizolarni hal etish mexanizmlari, davlat va jamiyatning bu jarayondagi roli doimo takomillashib boruvchi huquqiy jarayonni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Oilaviy kodeksi.
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008.
3. Egamberdiyev S. Oilaviy huquq. – Toshkent: “Adolat”, 2020.
4. Zaynutdinova G. Huquqiy munosabatlar nazariyasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019.
5. Black, H.C. Black’s Law Dictionary. – St. Paul: West Publishing Co., 1990.

Research Science and
Innovation House

